

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**“Jismoniy tarbiya tizimini
rivojlantirishning dolzarb muammolari
va istiqboldagi yechimlari”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2025-yil 17-18- oktabr

CHIRCHIQ-2025

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA STEAM YONDASHUVINING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Uljalg'as Tulegen qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ta'lim–mamlakat kelajagining ko'zgusi. Bilimni boyitish amaliy jihatdan kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga erishishdagi imkoniyatlaridan keng foydalanish ta'lim va tarbiya jarayoning alohida amaliy ahamiyatini aks ettiradi. Bu hozirgi kunda ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi bilvosita aloqadorlikni ta'minlashga nisbatan dolzarb talablarni shakllantiradi. Bu esa ta'lim va ishlab chiqarishning o'rtasidagi bilvosita aloqadorlikni zamonaviy o'qitishning STEAM texnologiyalaridan keng foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqishga undaydi. Boshlang'ich ta'lim o'quv mashg'ulotlarida STEAM texnologiyalaridan foydalanish va ta'limni texnologiyalashtirishning siyosiy omillarini yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5538 farmonida rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakalarini oshirishning ilg'or mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy egishdagi jarayonlar mazmunini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ta'limni amaliy ahamiyatini oshirishda STEAM texnologiyasining o'rni katta.

Avvalo, STEAM nima? - degan savolga javob bersak. STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida 5 ta–fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan.

STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'limi deganda amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi. Prezident maktablarida “STEAM” ta'lim dasturi asosida o'qish tashkil qilinishi, 9-11-sinflarda o'quvchilar o'zlarining qiziqishiga qarab ayrim fanlarni tanlash orqali individual bilim olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi bilan umumta'lim maktablaridan tubdan farq qiladi. Chunki Prezident maktablarining asosiy vazifalaridan biri tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'qitish, ularning intellektual salohiyatini ochib berish va rivojlantirishdan iborat.

Bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, Prezident qaror va farmonlari, ta'limning zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilishini tubdan qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, **aniq va tabiiy fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish, pedagogik ta'lim sifatini oshirish, ta'limdagi amaliyotga yo'naltirilgan metodikalarni kengaytirish** kabi masalalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

STEAM yondashuvi aynan shu maqsadlarga to'liq mos keladi, chunki u:

1.O'quvchilarning **analitik va ijodiy fikrlashini** rivojlantiradi;

2.Jamoaviy ishlash, loyihalar tuzish va muammolarni kompleks yondashuvda hal etishni o'rgatadi;

3.Amaliy mashg'ulotlar orqali **real hayotga mos bilimlarni shakllantiradi;**

4.O'quvchilarda **texnologik savodxonlik** va ilmiy tafakkurni erta bosqichdanoq rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, so'nggi qarorlar asosida sirtqi ta'lim shaklining pedagogika yo'nalishlarida to'xtatilishi, aynan **pedagogik mahorat va amaliy mashg'ulotlar salmog'ining oshirilishiga** xizmat qiladi. Bu esa, boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida ishlay oladigan **ijodkor, yangicha fikrlovchi, zamonaviy metodikani chuqur o'zlashtirgan o'qituvchilarni** tayyorlashga katta imkoniyatlar yaratadi.

Bundan tashqari texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ilmiy kashfiyotlar ta'limdan STEAM yondashuvini kengroq joriy etishni va uni boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga ham kiritishni talab qiladi. Ushbu yondashuv tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda yordam beradi. Mehnat bozori talablari boshlang'ich ta'limda STEAM rivojlanishining tezlashishiga ham ta'sir qiladi. Ko'pgina kasblar tabiiy fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarida maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Ushbu bilim va ko'nikmalar, agar ularga ta'limning dastlabki bosqichida e'tibor berilsa yaxshi shakllanadi. Chunki o'quvchi yoshligida olingan bilim uning miyyasida uzoq muddatga qoladi, hamda keyingi bosqichlarda unga poydevor vazifasini o'taydi. Boshqacha olib qaraydigan bo'lsak, dunyoni o'quvchi yoshligidan kashf qila oladi. Borliq haqida tasavvurlarga ega bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aksariyat mamlakatlarda ta'lim va iqtisodiyotni rivojlantirishning milliy strategik rejalari fan va texnologiyalarning ustuvor rivojlanishini o'z ichiga oladi. Ushbu maqsadlar uchun ilmiy-texnik ma'lumot va bilimlarga keng kirishni, shuningdek jamoada ishlashga va yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyorgarlikni ta'minlash kerak.

Boshlang'ich sinflarda STEAM ta'limi ushbu sohada bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash uchun asos bo'lishi mumkin. STEAM yondashuvi nafaqat o'rganish metodi, balki fikrlash usuli hamdir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'lib, shu bilimdan foydalanishni darhol o'rganadilar. Shuning uchun ular o'sib, haqiqiy dunyoda istalgan hayot muammosiga duch kelganda, bu xoh ifloslanish yoki iqlimning global o'zgarishi bo'lsin, bunday murakkab masalalarni faqat turli fanlardan olgan bilimlarga tayanish va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Faqat bitta fandan olgan bilimlariga tayanish yetarli bo'lmay qoladi. STEAM texnologiyalarining zamonaviy afzalligini aks ettiruvchi xususiyatlardan biri STEAM texnologiyasi asosida aniq fanlar va tabiiy fanlarni o'qitish boshlang'ich sinf sinf o'quvchilarining kasbiy va mehnat faoliyatidagi miqdor ko'rsatkichlaridan to'g'ri foydalanish orqali samarali natijalarga erishish tobora yangilanib borayotgan texnologik ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori natijalarga erishish va bu orqali iqtisodiy manfaatdorlikka erishishdir.

STEAM yondashuvining boshlang'ich ta'limdagi asosiy vazifalari:

1. Muammoli fikrlash va ilmiy yondashuvni rivojlantirish
2. Fan, texnika, san'at va matematika bilimlarini chuqurlashtirish

3. Jamoaviy hamkorlik va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish
4. Ijodiy va innovatsion fikrlashga yo‘naltirish
5. Kelajak kasblariga tayyorgarlikni ta‘minlash
6. Dizayn va texnologik loyihalash asoslarini o‘rgatish
7. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi – bu nafaqat o‘qitish metodikasi, balki fikrlash tarzi hamdir. U bolalarni mustaqil, kreativ va tahliliy fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv ta‘lim orqali jamiyatning barqaror iqtisodiy va ilmiy-texnik rivojlanishini ta‘minlashga, maktab va jamoatchilikni jalb qilgan holda ilmiy savodxonlik va raqobatbardoshlikni targ‘ib etishga yo‘naltirilgandir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PFRQ5538-son farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2018-yil 10-sentabr. 36-son, 722-modda.
2. Абдуллаева, У. Т. (2021). Туысқан халықтар әдебиетін оқыту. Современный образовательный потенциал и достижения, 1(3), 9-11.
3. Абдуллаева, У. Т. (2022). Умумий ўрта таълим мактабларида қардош халқлар адабиётини қиёсий ўқитишнинг илмий - назарий асослари. Globallashuv davrida tilshunoslik, 1(5), 272-274.
4. Kuralov Y.A. Development Of Geometric Creativity Of Secondary Scholl Students By Computer // International Journal of Scientific & Technology Research - (IJSTR) Volume-9 Issue-2, February 2020. –p 4572-4576. (№3)
5. Kuchkinov A.Y. “Boshlang‘ich ta‘limda STEAM” Darslik.-T.2024

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MTT (MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI) PEDAGOGGLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

G‘ulomova Nafisa Burikulovna
dillimoore89@gmail.com

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti stajyor-o‘qituvchisi

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar ta‘lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha ta‘lim jarayonining 65 % dan ortig‘i raqamli platformalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi (UNESCO, 2023). Xususan, maktabgacha ta‘lim sohasida raqamli resurslar va onlayn ta‘lim platformalaridan foydalanish o‘sish sur‘ati 2018–2023-yillar oralig‘ida 42 % ga yetdi (OECD, 2023). O‘zbekiston Respublikasida ham maktabgacha ta‘limni rivojlantirish strategiyasida 2030-yilgacha raqamli texnologiyalar asosida ta‘lim jarayonini modernizatsiya qilish ustuvor

Navruzov Ulug‘bek Bababekovich, Sh. Jabborberganova, A. Eshmuminova, Z. Ilhomova. Matnli masalalarni tenglama tuzish usulida yechish.	675
Имомбердиев Султанмурад Саитганиевич, Султонова Мафтуна Абдусодиқ кизи, Дадабекова Гулсанам Улуғбек кизи. Использование технологий экологически ориентированных задач в преподавании математики в общеобразовательных школах: педагогическая проблема и пути её решения	679
Imomberdiyev Sultanmurad Saidg‘aniyevich, Sultonova Gulqizmo Xolmaxmat qizi, Sharipova Mohina Muxammadsharif qizi, Jamoliddinova O‘lmasoy Mahmadali qizi, Mustafoyeva Sayyora Odinayevna. Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitish muammolari va ularni hal qilishning ba’zi usullari.	681
Sultanmurad Saitg‘aniyevich Imomberdiyev, Ahmatjonov Shohjahon Jumaboy o‘g‘li, Boboavezov Boboavez Shavkatjon o‘g‘li. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim oluvchilarni kasbga yo‘naltirish.	685
Захия Ахмедовна Наримбетова, Нуриддинхонова Дилдорахон Жалолиддинхон кизи. Базовые геометрические формы для младших школьников.	687
Захия Ахмедовна Наримбетова, Абдумуталлибова Фарангиз Элмуродовна, Иброхимова Дилдора Хотамовна. Развитие геометрических представлений у младших школьников через практическое моделирование.	690
Захия Ахмедовна Наримбетова, Юнусова Асель Нургалиевна, Анварова Хамида Ахмаджон кизи. Начальное знакомство с геометрическими формами.	693
З. А. Наримбетова, Джураева Ситора Улугбековна, Алимова Зухра Махдиевна. Практико-ориентированный подход к развитию геометрических компетенций у младших школьников.	698
Ayatov Raximberdi Ibragimovich. Ingliz tilini integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishga ta’sir etuvchi omillar (oliy ta’lim tizimi misolida).	700
Mirbabayeva Sabina Sobirjonovna. Kommunikativ yondashuv asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasi va uning samaradorligi.	703
G‘ulomova Nafisa Burikulovna. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarida ma’naviy sifatlarni tarbiyalash yo‘llari.	706
Abdullayeva Uljalg‘as Tulegen qizi. Boshlang‘ich ta’limda STEAM yondashuvining ahamiyati va rivojlanish istiqbollari.	709
G‘ulomova Nafisa Burikulovna. Raqamli texnologiyalar yordamida MTT (maktabgacha ta’lim tashkilotlari) pedagoglarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.	711
Ismanova Ma’mura Abdumo‘minovna, Abdullayeva Malika Agzam qizi, Abdurahmonova Feruza Abdurasul qizi, Karimova Bahora Quvonch qizi. Oliy ta’lim jarayonida talabalarning kreativ va metodik tayyorgarligini shakllantirishda innovatsion yondashuvning ahamiyati.	717
Raximova Nuquljon Yusupova, Razzaqov Bekzod Botir o‘g‘li. Zamonaviy	720